

# FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQRARISH INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI NOMLI III ILMIY ONLAYN KONFERENSIYA

## Sog'lom turmush tarziga oid ilmiy va nazariy falsafiy qarashlarida madaniyatshunoslik (tabu, an'analar, semiotika) yo'nalishlarning tahlil qilinishi

Osiyo xalqaro universiteti "Tarix va filioligiya" kafedrası dotsenti  
Gadoyeva Lobar Ergashevna

Osiyo xalqaro universiteti Tarix yo'nalishi 2kurs S-6T-23 guruh talabasi  
Qosimova Shaxrizoda Zokir qizi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada madaniyatshunoslik (tabu, an'analar, semiotika) salomatlikni asrashni, sog'lom turmush tarzida bilvosita tadqiq etilganligi, uning aslida tadqiqot ob'yekti moddiy va ma'naviy boyliklar, artefaktlar, semiotika, an'analar, hayot tarzi hisoblanishi va salomatlik fenomenini, sog'lom turmush tarzini ana shu ob'ektlari orqali o'rganilishi mumkin ekanligi ochib berilgan.

**Kalit so'zlar:** Sog'lom turmush tarzi, madaniyatshunoslik, tabu, artefaktlar, semiotika, an'analar, revmatizm, etnos.

**Madaniyatshunoslik** (tabu, an'analar, semiotika) salomatlikni asrashni, sog'lom turmush tarzi bilvosita tadqiq etadi. Uning aslida tadqiq ob'yekti moddiy va ma'naviy boyliklar, artefaktlar, semiotika, an'analar, hayot tarzi hisoblanadi. U salomatlik fenomenini, sog'lom turmush tarzini ana shu ob'yektlari orqali o'rganadi.

**Tabu** ibtidoiy hayot tarzi kashfiyotidir. Ibtidoiy hayot tarzi bosqichini deyarli barcha xalqlar bosib o'tganidek, tabu ham ular hayot tarziga xos uslub edi. Aynan tabu kishilarni nima yaxshiyu nima yomon, nima organizm uchun zaruru nima zararli, qanday yashash keraku qanday yashash mumkin emasligini o'rgatdi. Mashhur etnograf va madaniyatshunos J.J.Frezerning keltirishicha, ko'pgina etnoslarda yot yurtlardan kelgan kishiga ishonmay, uni yomonlik yoki salomatlikka biror zararli narsa tarqatuvchi deb qarash odati bor bo'lgan. Masalan, indeyes apalaylar o'zga yurtdan kelgan kishini o'z tanasiga zaharli chumolilarni qo'yishga majbur qilishgan, bu chumolilar chaqqanda kishi terisi shishib, ko'karib qolgan. Yava orolida yashovchi qabilalar esa revmatizm va podagradan xalos bo'lish uchun oyoq ostiga va barmoqlar orasiga achchiq ispan garmdorisini surish kerak deb hisoblashadi. Boshqa bir qabilada go'dakni yovuz ruh bossa yoki uni yovuz kuchlar xujumidan xalos qilish uchun uning tilingan badaniga ko'k garimdori surish zarur, deb bilishadi. Tashqi notanish kuch, kishi

## FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQRARISH INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI NOMLI III ILMYI ONLAYN KONFERENSIYA

qabilaga yomonlik olib keldi, uning salbiy ta'siridan xalos bo'lish darkor, degan tabu har bir etnosda har hildir. Sehrgarlar, shamanlar xastalikka chalingan qabiladoshlarining ruhini tozalashga intilganlar, goho olov yoqib kasallik tarqatuvchi kuchlarni haydaganlar. Etnos salomatligini asrovchi bunday kishilarni maxsus tayorgarlik mashqlarini o'taganlar va ularning bu mashqlari etnomadaniyatdan o'rin olgan<sup>1</sup>. J.J.Frezer temirga, konga, so'zga, chilgak va bog'lovga, toshga ham tabular bo'lganini keltiradi. Uning yozishicha, tabu o'ziga xos elektroizolyator vazifasini o'tab kishilarni zararli narsalardan himoya qilgan<sup>2</sup>.

Madaniyat nuqtai nazaridan tabu ma'lum bir taqiqlarni, ushbu taqiqlar natijasida etnos ongida hayot tarzida shaklangan tasavvurlar va an'analarni ifoda etgan. Ular etnosning kundalik turmushida namoyon bo'lib, ularni boshqacha tasavvurlarga ega guruhlardan farqlab turgan.

Semiotika yoki simvollar haqidagi tasavvurlar, nazarlar madaniyatshunoslik tadqiq etadigan asosiy ob'ektlardan, mavzulardan biridir. Qizil rangdagi krest salomatlik yoki sog'liqni saqlash bilan bog'liq simvoldir, ilonning idishga zaqqumini quyishi tasviri dorixonani, shifoxonani anglatadi, 03 tez yordamni bildiradi. Yon atrofimiz simvollarga, ushbu simvollarni talqin etuvchi semiotik yondashishlarga to'la. Ularning ma'nosi har bir kishiga, ya'ni tibbiy madaniyatga ega har bir kishiga tushunarlidir. Falsafa fanlari doktori, professor L.G.Ioninning yozishicha, hatto mif, ilm-fan, so'z boringki inson faoliyatining barchasi semiotik xususiyatga ega bo'lib, aynan ularda etnik identifikatsiya namoyon bo'ladi<sup>3</sup>.

Madaniyatshunoslik mavjud tabiiy borliq bilan inson qo'li tomonidan yaratilgan borliq o'rtasidagi muammolarga diqqatini qaratadi. Qanday qilganda inson tomonidan yaratiladigan moddiy boyliklar, artefaktlar mavjud borliqni yanada go'zal, oliyjanob va insoniy qiladi, degan savolga javob izlanadi<sup>4</sup>. Sog'lom turmush tarzi ushbu maqsadga muvofiq keladi, chunki uning pirovard maqsadi insonga xush keladigan muhitni, yashash sharoitini yaratish, uzoq va baxtli umr ko'rishiga ko'maklashishdir. Shu bilan birga, sog'lom turmush tarzi har bir kishini madaniy boyliklar yaratishida qatnashishining kafolati hisoblanadi. "Sog' tanda sog'lom aql", deydi xalqimiz. Sog'lom aql esa jamiyatga, insonning o'ziga muvofiq keladigan madaniy boyliklar yaratishga

<sup>1</sup> Фрезер Дж.Дж. Золотая ветвь. Москва Политиздат, 1983.С.190-192

<sup>2</sup> Фрезер Дж.Дж. Золотая ветвь. Москва Политиздат, 1983.С.216-219

<sup>3</sup> Ионин Л.Г. Социология культуры. Изд. Второе. Москва. Логос. 1998.С.143-162

<sup>4</sup> Философия культуры. Становление и развитие. Санкт-Петербург, Лань, 1998.С.4



## FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQRARISH INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI NOMLI III ILMIY ONLAYN KONFERENSIYA

qodir. Shuning uchun ham ijod, yaratish, artefaktlarni ko'paytirish madaniyatning asosiy funksiyalaridan biri hisoblanadi. Sog'lom turmush tarzini madaniyatshunoslik ana shunday artefaktlardan biri deb biladi va uni shakllantirishni madaniyatli jamiyatning vazifasi deb biladi. Madaniyat va madaniyatli jamiyatning immanent xususiyatlari insonning ijodiy jarayonidagi ishtiroki, yangi va yangi madaniy boylıklar yaratishga shayligi, qodirligida aks etadi. Jismonan va ruhan sog' jamiyatni, kishilar birligini shakllantirish mudom gumanistik qarashlar orzusi bo'lib kelgan. To'g'ri, bu orzuni tasavvur etish va ro'yobga chiqarish texnologiyasi Sharqda boshqacha, G'arbda boshqacha, agar Sharq inson ruhiyati va kamolotiga e'tibor qaratsa, G'arb tashqi dunyoni, ijtimoiy borliqni takomillashtirishda ko'radi. Mazkur farqni, tafovutlarni etnotibbiy madaniyatda yaqqol ko'rish mumkin. Biroq ularning ikkalasi ham inson hayotini go'zallashtirishni, uning umrini yanada uzaytirishni, ijtimoiy munosabatlarning faol sub'yektlari bo'lishini istaydi. Bu o'rinda sog'lom turmush tarzining umuminsoniy xarakteri ko'zga tashlanadi.

Sog'lom turmush tarzi moddiy turmush tarzini, ham hayot falsafasini, ushbu falsafaga taalluqli bo'lgan qarashlar, tasavvurlarni o'z ichiga oladi. Madaniyatshunoslik uchun ularning har ikkalasi ham muhimdir. Agar u moddiy turmush tarzini o'rganishga diqqatini qaratsa, avvalo undagi artefaktlarning inson hayotiga, hayot falsafasiga va ijodga munosabatlarini o'rganadi. Insondagi ijodiy kuchlarni rivojlantirishning moddiy turmush tarzi bilan bog'liqligi madaniyatshunoslikni shunchalik qiziqtiradiki, ushbu uzviylikni u mudom ruhiy ijodiy jarayonlarda ko'radi. Mazkur ruhiy ijodiy jarayonlar tasodifan ruy beradigan narsalar emas, uning sub'yekti mudom jamiyat va kelajak oldida o'z mas'uliyatini sezadigan, aqlan, jismonan va ruhan sog' insondir. Ba'zan shunday fikrlarga duch kelamizki, shoir, adib yoki musavvir ijodiy izlanishlar jarayonida o'zini unutadi, yon atrofidagilarga telbanamo munosabatda bo'ladi, egoizm beriladi, shuning uchun bunday ijodkorlarni Lombrozo kabi "telbalar" deb atash o'rinli. Ha, ruhiy ijodiy jarayonlar ba'zan kishini o'zligini unutishga undaydi, unda noodatiy tasavvurlar, xatti harakatlar paydo bo'ladi, biroq bu ijodkorda jamiyat va kelajak oldida mas'uliyat mutlaq yo'q, degan xulosaga olib kelolmaydi. Aks holda biz barcha yirik ijodkorlarni telbaga chiqargan va ularni xasta, kasal kimsalar, deb atashga majbur bo'lardik. Darvoqe, ularni aksariyati 80-90 va undan ortiq umr ko'rgan, ijod qilishdan to umrining oxirigacha to'xtamagan hisoblanadi.

FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQRARISH  
INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI  
NOMLI III ILMIY ONLAYN KONFERENSIYA

**Adabiyotlar ro'yxati:**

1. Фрезер Дж.Дж. Золотая ветвь. Москва Политиздат, 1983.С.190 192
2. Ионин Л.Г. Социология культуры. Изд. Второе.Москва. Логос. 1998.С.143 162
3. Философия культуры. Становление и развитие. Санк Петербург, Лань, 1998.С.4